

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA “NEIGHBOURHOOD WATCH” DASTURINING AHAMIYATI



Toshpulatov Akrom Ikromovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori,
yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Maqolada Buyuk Britaniyada jinoyatchilikning oldini olishda keng qo'llanilgan “Neighbourhood Watch” dasturi tahlil qilingan. Ushbu dasturning kelib chiqish tarixi, jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik va politsiya hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mavzu bo'yicha olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida dasturning ijobiy tomonlari hamda kamchiliklari bo'yicha xulosalar chiqarilgan. Dasturning va O'zbekistondagi mahalla institutining jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi o'xshashlik va farqli tomonlari taqqoslangan. O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilik hamkorligini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, “Neighbourhood Watch”, jinoyatchilikning oldini olish, jamoatchilik, politsiya, ixtiyoriylik.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОГРАММЫ “NEIGHBOURHOOD WATCH” В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. В статье анализируется программа “Neighbourhood Watch”, широко применяемая в Великобритании для предупреждения преступности, изучена история ее возникновения, особенности сотрудничества общественности и полиции в предупреждении преступности. На основе анализа научных работ ученых по данной теме сделаны выводы о положительных сторонах и недостатках программы. Сравниваются сходства и различия между этой программой и борьбой с преступностью в рамках института махалли в Узбекистане. Разработаны рекомендации по расширению сотрудничества правоохранительных органов и общественности в предупреждении преступности в Узбекистане.

Ключевые слова: преступность, “Neighbourhood Watch”, предупреждение преступности, общественность, полиция, добровольность.

THE IMPORTANCE OF THE “NEIGHBOURHOOD WATCH” PROGRAM IN CRIME PREVENTION

Abstract. This article analyzes the “Neighbourhood Watch” program, widely used in the United Kingdom for crime prevention. The history of this program's emergence and the peculiarities of cooperation between the public and police in crime prevention have been studied. Based on the analysis of scientific works of scholars on this topic, conclusions about the positive aspects and shortcomings of the program have been drawn. The similarities and differences between this program and crime-fighting within the framework of the mahalla institution in Uzbekistan are compared. Recommendations have been developed to expand cooperation between law enforcement agencies and the public in crime prevention in Uzbekistan.

Keywords: crime, “Neighbourhood Watch”, crime prevention, community, police, voluntariness.

Mamlakatimizda kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF – 10-son farmoni [1] va 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarorida [2] jahon

kriminologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligining ilg'or tajribalarini doimiy o'rganish hamda uning natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida “g'oyadan amaliyot-

gacha” degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni qo'llash tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan xorijiy mamlakatlarning jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan turli strategiyalari, dasturlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jinoyatchilikning oldini olishda muvaffaqiyatli dasturlardan biri – bu Buyuk Britaniyaning “Neighbourhood Watch” dasturi hisoblanadi. Ingliz tilidagi “Neighbourhood Watch” atamasi mazmungan “qo'shnilar kuzatuv” yoki “mahalla nazorati” degan ma'noni bildiradi.

Ushbu dastur 40 yildan ortiq vaqt davomida qo'llanib kelinayotganligi, uning miqyosi kengayib borayotganligi hamda mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik hamkorligini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqib, ushbu dasturni tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi.

“Neighbourhood Watch” dasturi nafaqat politsiya, davlat xizmatlari tomonidan, balki olimlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Ushbu dasturning alohida sayti ham mavjud bo'lib, unda dasturning faoliyatiga oid tahlillar berib boriladi [3]. Olimlardan Trevor Bennett, Katy Holloway & David P Farrington “Neighbourhood Watch” dasturining jinoyatchilikni kamaytirishdagi samaradorligini baholashga qaratilgan tizimli tahlilni amalga oshirishgan [4], Satyanshu Mukherjee va Paul Wilson Avstraliyaning Viktoriya shtatida 1984-yilda joriy etilgan “Neighbourhood Watch” dasturlarining ta'sirini, ayniqsa, dasturning jinoyatchilik darajasiga, ayniqsa, turar-joylarni buzib kirish (burglary) holatlariga ta'sirini o'rganganlar [5], Sylvia Chenery dasturning Buyuk Britaniyadan tashqari Avstraliya, Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarda ham keng tarqalganligi, har bir mamlakatda dasturning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan [6], Chris Moores ushbu dasturning tarqalishi va ularning Margaret Tetcher davridagi siyosiy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini tahlil qilgan [7], Pepper,

M. va Bullock, K. dasturning hozirgi holati va uning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilib, uning faqat jinoyatchilikni kamaytirishga, balki jamoatchilik farovonligi, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va texnologiyalardan foydalanish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilganligini ta'kidlaydilar [8], Kirstie Ball Yevropadagi “Neighbourhood Watch” dasturlarini tahlil qilish asosida ushbu dasturlarning jamoatchilik ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashdagi roli, fuqarolarning xavfsizlikka bo'lgan munosabati va dasturlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritadi [9], Trevor Bennett Londondagi “Neighbourhood Watch” dasturi ishtirokchilari va ishtirok etmagan fuqarolar o'rtasidagi farqlar o'rgangan [10], Ian Brunton-Smith va Karen Bullock dasturlarda fuqarolar va politsiya o'rtasidagi hamkorlik asosidagi faoliyatning turlari va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilganlar [11], Anthony Davies va Richard Jenkins Neighbourhood and Home Watch Network (NHWN) tashkilotining tashkil etilishi, maqsadlari va faoliyat yo'nalishlarini o'rganib, NHWNning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli, fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantirish va politsiya bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini tahlil qilganlar [12], H. Mak va D. Fancourt COVID-19 pandemiyasi davrida Buyuk Britaniyada katta yoshli insonlarning ixtiyoriy faoliyatda ishtirok etishlariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilganlar. Tadqiqotda katta yoshli insonlarning ma'lumotlari asosida demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxsiy va psixosotsial omillar o'rganilgan va ularning jinoyatchilikning oldini olishdagi dasturlarda ishtirokiga oid xulosalar chiqarilgan [13], Marius Meyer va Johan van Graan Janubiy Afrika Respublikasi G'arbiy Rand mintaqasidagi Rudekrans mahallasida amalga oshirilgan “Neighbourhood Watch” dasturining tajribasini tahlil qilgan [14]

1982-yilda Buyuk Britaniyadagi Cheshir grafligiga (Cheshire) qarashli Mollington qishlog'ida (Mollington) mahalliy jinoyatchilik profilaktikasi inspektori, serjant Grem Jon Endryus boshchiligidagi “Home Watch” nomi ostida ilk kuzatuv guruhi tuziladi. Ushbu tajriba mahalla

hududida sodir bo'layotgan o'g'rilik holatlarining oldini olish maqsadida joriy etilgan edi.

Ilk "Home Watch" guruhi o'z samarasini ko'rsatgach, 1980 yillar davomida mamlakat bo'ylab shunga o'xshash mahalla kuzatuv tizimlari tobora ko'payib bordi. Ko'plab shahar va qishloq jamoalari o'z ko'ngilli guruhlarini tuzib, mahalliy politsiya bilan hamkorlikda jinoyatlarning oldini olishga kirishadilar. Vaqt o'tishi bilan "Home Watch", keyinchalik "Neighbourhood Watch" harakati yanada tashkillashgan tuzilmalarga ega bo'la boshladi – avvaliga har bir mahallada alohida guruhlar, so'ngra tuman va mintaqaviy darajada uyushmalar shakllandi. Nihoyat, 2007-yilga kelib, politsiya va Ichki ishlar vazirligi (Home Office) ko'magida butun Angliya va Uels bo'ylab «Neighbourhood Watch» guruhlarini birlashtiruvchi ilk milliy uyushma – Neighbourhood&Home Watch Network (NHWN) tashkil etildi. Ushbu tuzilma mahalla kuzatuv guruhlarini rivojlantirish, ularning o'zaro va politsiya bilan aloqasini mustahkamlash hamda asosan uy-joy o'g'riliklari va shaxsiy xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyatlarni kamaytirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab keldi. Shu tariqa, «Neighbourhood Watch» dasturi o'zining qariyb 40 yillik tarixida mamlakat miqyosida samarali tizim sifatida shakllandi va boshqa ko'plab davlatlarda ham qo'llanila boshlandi.

"Neighbourhood Watch" dasturining asosiy maqsadi:

jinoyatchilikning oldini olish va mahallada xavfsiz muhit yaratish;

politsiya va mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash;

fuqarolarni faol kuzatuvchi, mas'ul va xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shuvchi subyekt sifatida shakllantirish;

o'zaro yordam va qo'shniçilik munosabatlarini rivojlantirish orqali jinoyatchilikning ildiz sabablarini bartaraf etishdir.

Ushbu dastur quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. Ixtiyoriylik va fuqarolar ishtiroki:

dastur fuqarolarning xohishlari bilan amalga

oshiriladi;

har bir mahalla yoki ko'chada "Neighbourhood Watch" guruhi tuziladi va unga fuqarolar, ko'chada yashovchi aholi a'zo bo'ladi.

2. Koordinatorlar tarmog'i:

har bir guruhda mahalla koordinatori tayinlanadi;

u politsiya bilan aloqa o'rnatadi, xavotirli holatlarni kuzatadi va boshqa a'zolarga axborot tarqatadi.

3. Politsiya bilan hamkorlik:

guruh a'zolari politsiyadan maxsus treninglar, axborotlar va xavfsizlik bo'yicha maslahatlar oladi;

shubhali faoliyat, huquqbuzarlik holatlari haqida tezkor axborot berib boradi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

elektron pochta, SMS va maxsus ilovalar orqali guruh a'zolari o'zaro ma'lumot almashishadi;

ko'plab mahallalarda CCTV kameralari fuqarolar tashabbusi bilan o'rnatilgan.

5. O'quv va xabardorlik faoliyati:

tadbirlar, seminarlar, xavfsizlik kurslari tashkil etiladi;

bolalar, keksalar, nogironlar uchun maxsus xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkaziladi.

So'nggi yillarda politsiya va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida rasmiy kelishuv mexanizmlari ham yo'lga qo'yildi. Masalan, 2023-yili Angliya va Uels politsiyasi "Neighbourhood Watch" milliy uyushmasi bilan birgalikda maxsus hamkorlik doiraviy kelishuvi (Local Police – "Neighbourhood Watch" Framework)ni imzoladi [15]. Ushbu kelishuvda mahalliy darajada politsiya xodimlari va kuzatuv guruhlariga axborot almashish, aholini kuzatuv guruhlariga qo'shilishini targ'ib qilish, profilaktika tadbirlarini birgalikda o'tkazish kabi masalalarda o'zaro majburiyatlarini belgilab oldilar. Bu yangilik "Neighbourhood Watch" ko'ngillilari uchun ham juda qulay bo'lib, ular endilikda politsiya bilan hamkorlikda ish olib borishda o'zlarini ancha erkin his etmoqdalar. Mazkur hujjat ikki tizimni yanada yaqinlashtirib, ish samaradorligini oshirmoqda

hamda jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashishga bo'lgan intilishni mustahkamlamoqda.

Kuzatuv dasturi amal qiladigan mahallalarda, odatda, ogohlantiruvchi belgi o'rnatiladi. Ushbu belgi potensial qonunbuzarlarga signal bo'lib, "bu hudud kuzatuv ostida, bu yerda sodir etilayotgan g'ayrioddiy holatlar haqida politsiyaga xabar beriladi", degan ma'noni anglatadi. Belgilar mahalliy aholiga ham xavfsizlik uchun jamoaviy mas'uliyat mavjudligini eslatib turadi. Natijada har bir kishi nafaqat o'z uyi, balki qo'shnisining ham mulki daxlsizligini himoya qilishga hissa qo'shayotganini his etadi.

Turli tadqiqot va kuzatuvlarga ko'ra, "Neighbourhood Watch" dasturi jamoat xavfsizligini oshirish va jinoyatchilikni kamaytirishda sezilarli natija bermoqda. Xususan, bir qator mamlakatlardagi qo'shnilar kuzatuv tashabbuslarini o'rgangan ilmiy izlanish natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bunday dastur joriy etilgan hududlarda jinoyatlar soni o'rtacha 16% ga kamayishi aniqlangan [4; 145–146-b.].

"Neighbourhood Watch" tashabbusining jamoatchilikka ta'siri faqat jinoyatlar sonini kamaytirish bilangina cheklanmaydi. Bunday dasturlar natijasida mahallalarda ijtimoiy hamkorlik muhiti kuchayishi, qo'shnilar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanishi va jamoaviy ishonchning ortishi kuzatiladi. Aholining politsiyaga nisbatan munosabati ham ijobiy tomonga o'zgaradi – bevosita hamkorlik tajribasi tufayli fuqarolar huquq-tartibot idoralari endi sherik va ko'makdosh sifatida qabul qila boshlaydi [7; 241–244-b.]. Britaniya ichki ishlar idoralari ham mahalla bilan yaqindan ishlash (Neighbourhood Policing) jamoat ishonchini oshirishning muhim omillaridan ekanini qayd etib, "Neighbourhood Watch" dasturi politsiya va aholi o'rtasida ma'lumot almashinuvi yaxshilanishi natijasida mahallalarni yanada xavfsiz qilishga xizmat qilayotganini ta'kidlaydi.

Raqamlar ham "Neighbourhood Watch"ning fuqarolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishini tasdiqlaydi. Masalan, 2009–2010-yillarda o'tkazilgan Britaniya jinoyatchilik so'rovi (British Crime Survey)da o'z mahallasida kuzatuv guruhi mavjud

bo'lmagan respondentlarning 76%, agar shunday guruh tuzilsa, unga qo'shilish istagi borligini bildirgani aniqlangan [16]. Hozirgi kunda esa Buyuk Britaniya bo'ylab "Neighbourhood Watch" harakati juda keng tarqalgan, faqat Angliya va Uelsning o'zida taxminan 170 mingta mahalla kuzatuv tizimi faoliyat ko'rsatib, ular 3,8 milliondan ortiq xonadonni qamrab olgan. Bu ko'lam dastur nafaqat rasmiy siyosat, balki oddiy aholi tashabbusi sifatida ham qanchalik ommalashganini ko'rsatadi.

O'z vaqtida Margaret Thatcher "Neighbourhood Watch" guruhlarini "huquq-tartibot posbonlari" deb atab, fuqarolarni qonun ustuvorligi yo'lidagi "qo'shin"ga qiyoslagan edi. Bunda hukumat jinoyat profilaktikasida fuqarolarning faolligiga tayangan holda, davlat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni ko'zlagan. Shu tariqa, dastur asosida fuqarolarning o'z mulki va mahallasi daxlsizligini ta'minlashdagi mas'uliyati konsepsiyasi yotadi [7; 232-b.].

Tarixiy rivojlanish jarayonida "Neighbourhood Watch" dasturi nafaqat Britaniyada, balki boshqa qit'alarda ham keng tarqaldi. AQSH, Kanada, Avstraliya kabi davlatlar bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlari – Avstriya, Germaniya va Ispaniyada ham shunga o'xshash mahalla kuzatuv tizimlari joriy etilganini ko'rish mumkin. Turli davlatlarda dastur mahalliy sharoitga moslashtirildi: ba'zi yerlarda politsiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan rasmiy klublar shaklida tashkil etilsa, boshqa joylarda norasmiy qo'shnichilik guruhlarini sifatida paydo bo'ldi. Har bir joyda umumiy maqsad – jamoaviy nazorat orqali jinoyatning oldini olish va qo'shnilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish – asos bo'lib xizmat qiladi [9; 28-b.].

"Neighbourhood Watch" harakati bir qator ijobiy jihatlarga ega va turli tadqiqotlar bu dasturning samarali ekanini ko'rsatib bergan. Ularni shartli ravishda jinoyatchilikka ta'sir, jamoaviy hamjihatlikka ta'sir va fuqarolar ongi va farovonligiga ta'sir kabi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin.

Jinoyatlarning oldini olish va huquqbuzarlikka ta'siri. Birlamchi maqsad sifatida "Neighbourhood

Watch” jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan. Bir qancha ilmiy tahlillar dasturning bevosita va bilvosita samaralarini o'rganib, ijobiy ta'sirlarini topgan. Xususan, Meyer, M. and Van Graan, J. Janubiy Afrikadagi Rudekrans mahalla kuzatuv guruhi misolida jinoyatlarga ta'sirni o'rganib, diqqatga sazovor natijaga erishgan: mahallada fuqarolar kechki vaqt patrul xizmatini yo'lga qo'yganidan so'ng jinoyat sodir etish holatlari keskin kamaygan. Ma'lumotlarga ko'ra, patrul mavjud vaqtlarda jinoyatlar faqat 18% holatda sodir etilgan bo'lsa, patrul yo'q paytlarda bu ko'rsatkich 82%ga chiqqan [14; 133-b.].

Boshqacha aytganda, fuqarolar navbatchilik qilganda jinoyatchilar faoliyati sezilarli cheklangan. Bu holat “Neighbourhood Watch” tarzidagi tashabbuslar mahalliy miqyosda jinoyatlarni jismonan to'xtatishga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Jamoaviy hamjihatlik va ijtimoiy kapital. “Neighbourhood Watch” dasturining yana bir muhim afzalligi – mahallalardagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi va fuqarolarda jamoaga daxldorlik hissini oshirishi. Bennett, T. Londonning ikki mahallasini tadqiq etib, “Neighbourhood Watch”da ishtirok etuvchi kishilarning ruhiy holati va motivatsiyasiga oid qiziqarli xulosaga kelgan: dasturga qo'shilgan ishtirokchilar qo'shilmaganlarga nisbatan jinoyatdan ko'proq qo'rquv hissiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, o'z jamoasi hayotida faolroq ishtirok etuvchi, ijtimoiy aloqalari kuchliroq shaxslar ekani aniqlangan. Boshqacha aytganda, qo'rquv tuyg'usi ularni jamoaviy tartibni saqlashga undagan, biroq bu faqat qo'rquvning o'zi emas – ular, shuningdek mahalla xotirjamligini ta'minlashni o'z burchi deb biluvchi, jamiyatparvar insonlar edi. Bennett, T. shu tariqa “Neighbourhood Watch” ishtirokchilarida “qo'rquv” va “ijtimoiy mas'uliyat” ikki yoqlama motivatsiyasi borligini ta'kidlaydi. Bu natija dasturning ijtimoiy psixologik foydasiga ishora qiladi: tashvish va qo'rquv yakkalikda passivlikka olib borishi mumkin bo'lsa-da, jamoaviy birlashuv orqali uni ijobiy kuchga – mahalladagi hamjihatlikka aylantirish mumkin [10; 211–212-b.].

Shu bilan bog'liq boshqa tadqiqotlar ham “Neighbourhood Watch” mahallada ijtimoiy kapitalni oshirishini ko'rsatadi. Davies, A. va Jenkins, R. o'z tadqiqotlarida bu dastur mahallada yashovchilarni birlashtirib, ularni yashash joyiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatishini ta'kidlagan. “Neighbourhood Watch” a'zolari qo'shnilari bilan yaqinroq tanishib, bir-biriga yordamlashishga moyil bo'ladi, bu esa qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlab, umumiy ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Masalan, Angliyadagi kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, dastur joriy etilgan mahallalarda fuqarolar nafaqat jinoyat profilaktikasida, balki boshqa mahalliy masalalarda ham birgalikda faollik ko'rsatadi [12; 15-b.].

Pepper, M. va Bullock, K. ham o'z tadqiqotlarida “Neighbourhood Watch” harakatining azaliy “ildizlari” faqat jinoyatning oldini olish bilangina cheklanmay, balki aholi salomatligi, farovonligi va qo'shnichilik yordamlari kabi kengroq ijtimoiy muammolarni qamrab olishga intiladi, deb ta'kidlaydi. Demak, dastur mahalla darajasida ijtimoiy birdamlikni rag'batlantiradi, hamjihatlik hissini kuchaytiradi va “bir biriga bog'liqlik” prinsipini mustahkamlaydi [8; 118-b.].

Fuqarolar ongi va farovonligiga ta'siri. “Neighbourhood Watch”da ishtirok etish individual darajada ham ijobiy samara beradi. Avvalo, bunday ixtiyoriy faoliyat fuqarolarda foydali ko'nikma va bilimlarni, ya'ni xavfsizlikka e'tiborli bo'lish, o'z mulkini himoya qilish choralari kuchaytirish, qo'ni-qo'shni bilan muloqotda bo'lish kabilarni shakllantiradi. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, dastur ishtirokchilari o'zlarini mahallasiga foydasi tegadigan ish qilayotganidan qoniqish hissi oladi va bu ularning psixologik farovonligiga ijobiy ta'sir qiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan bir tadqiqotda (Mak, H. and Fancourt, D., 2022) mahallada ixtiyoriy mehnat va jamoat ishlarida faol ishtirok etish (shu jumladan “Neighbourhood Watch”) ruhiy salomatlikni yaxshilashi, shuningdek, volontyorlikka vaqt ajratadigan kishilarda depressiya va stress simptomlari kamroq kuzatilib, “keraklik hissi”

yuqori bo'lishi aniqlangan [13; 289–290-b.]. Shu bilan birga, buning ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bog'liq jihatlari ham bor. Masalan, nisbatan tartibsiz yoki kambag'al hududlarda bunday tashabbuslarga qo'shilish darajasi pastroq bo'lib, fuqarolar e'tiborsizligi yoki ishonmasligi tufayli dasturda ishtirok etmasligi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, "Neighbourhood Watch" kabi harakatlar fuqarolarga shaxsan ham ijobiy ta'sir etar ekan, ya'ni ularning xavfsizlik borasidagi bilim va ko'nikmalari oshadi, ongida jamiyatga daxldorlik, hamkorlik tuyg'ulari kuchayadi va natijada ijtimoiy mas'uliyat va birdamlik hissi shakllanadi.

Yuqoridagi jihatlar tufayli bu dastur ko'plab mamlakatlarda *jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangan* va politsiya uchun ham foydali hamkorlik mexanizmi sifatida qabul qilingan. Ichki ishlar organlari resurslari cheklangan sharoitda mahalla kuzatuv guruhlarini huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga qo'shimcha "ko'z-quloq" bo'lib xizmat qilgan holatlar ko'p uchraydi. Masalan, Janubiy Afrikada politsiya rasmiylari "Neighbourhood Watch" guruhlarini rasman Community Policing Forum (jamoatchilik politsiya forumlari) tarkibiy qismi sifatida integratsiya qilishni taklif etgan, bu orqali fuqarolar politsiya bilan yaqin hamkorlikda huquqbuzarliklarni manzilli profilaktika qilishda ishtirok etishi nazarda tutilgan. Bunday hamkorlik natijasida politsiyaga nisbatan jamoatchilikning ishonchi ortadi, chunki fuqarolar huquq-tartibotni ta'minlash jarayonining bevosita bir bo'lagiga aylanadi. Shu tariqa, "Neighbourhood Watch" dasturi ijtimoiy profilaktikada qo'shimcha resurs vazifasini o'taydi hamda "profilaktika madaniyati"ni yuzaga keltiradi.

Albatta, har qanday dasturda bo'lgani kabi bu dastur ham ayrim kamchiliklardan xoli emas. Tadqiqotchilar "Neighbourhood Watch" dasturining yuqorida sanab o'tilgan ijobiy natijalari bilan bir qatorda, uning ayrim kamchilik va muammolarini ham aniqlashgan. Dastur real sharoitlarda hamma vaqt birdek samarali bo'lavermaydi, uni tashkil etish va yuritishda qator qiyinchiliklar mavjud. Quyida dasturning asosiy kamchiliklari va tanqidiy jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Ishtirokchilar qatlami va qamrovning cheklanganligi. "Neighbourhood Watch" harakatiga hamma mahalla aholisi birdek jalb etilmasligi mumkin. Aholining ijtimoiy tuzilishiga qarab, kimdir faol qatnashadi, boshqalar esa qiziqmaydi, bu esa dastur qamrovini cheklaydi. Brunton-Smith, I. and Bullock, K. ning Britaniya bo'yicha tadqiqotida ma'lum qilinishicha, "Neighbourhood Watch" guruhlarini asosan hayotiy tajribasi kattaroq, o'rta yoshli, ayol kishilar orasida keng tarqalgan, shuningdek qatnashuvchilar ko'p hollarda nisbatan moddiy ta'minlangan (o'rta va yuqori daromadli) aholi vakillaridir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy muammolar ko'proq bo'lgan qashshoq mahallalarda "Neighbourhood Watch"ni yo'lga qo'yish qiyinroq, fuqarolar vaqti va ijtimoiy resursi yetishmasligi yoki o'zaro ishonch pastligi sabab bu ishga bosh qo'shmasligi mumkin. Tahlillarda ko'rsatilishicha, jinoyat xavfi yuqori bo'lgan taqdirdagina bunday mahallalarda aholi dasturga qiziqish bildiradi. Demak, dastur ko'proq tinchroq va farovonroq hududlarda ommalashib, eng ko'p ehtiyoj sezilgan xavfliroq joylarda, aksincha, kamroq qo'llanilishi mumkin. Bu paradoks holat "Neighbourhood Watch"ning umumiy jinoyatchilikka ta'sirini cheklaydi, chunki e'tibor asosan xavf nisbatan kamroq bo'lgan joylarga qaratilsa, jinoyatchilik keng tarqalgan mahallalar e'tibordan chetda qolishi mumkin [11; 86–87-b.].

Ishtirokchilar tarkibi masalasida yana bir muammo – xilma-xillikning yetishmasligi. Pepper, M. va Bullock, K. o'z tadqiqotlarida "Neighbourhood Watch"ning zamonaviy rivojida hamon katta bir chaqiriq mavjudligini ta'kidlaydi, bu – harakatga turli qatlam va guruhlarini jalb qilish, hududni kengaytirish muammosi. An'anaviy hududiy (ko'cha yoki mahalla doirasidagi) tizimlar hali ham asosan o'zining avvalgi doimiy a'zolari bilan cheklanib qolmoqda, yoshlar, ko'chib kelgan yangi odamlar yoki etnik ozchilik vakillari kabi guruhlar esa unda kam ishtirok etadi. Natijada, dastur ba'zi jamoalarda "yopiq klub" ko'rinishini olishi, keng jamoatchilik tomonidan to'liq qabul qilinmasligi xavfi bor. Ayrim holatlarda mahalla

kuzatuv guruhlarini atrofida kishilarga “begona” tuyilib, ularga qo‘shilmay yurishadi. Shunday ekan, harakat oldida turgan vazifa – aholining keng qatlami orasidan yangi a‘zolar jalb qilish, dasturni yanada inklyuziv (barcha uchun ochiq) va jozibador etib tashkil etishdir [8; 125-b.].

Barqarorlik va davomiylik muammolari. “Neighbourhood Watch” guruhlarini tashkil etish bilan ish bitmaydi, shuningdek, ularni uzoq muddat davomida faol ushlab turish ham oson emas. Volontyorlik asosidagi bu harakat vaqt o‘tishi bilan dolzarbligini yo‘qotishi, odamlar qatnashishdan charchashi yoki boshqa sabablar bilan chekinish xavfi bo‘ladi. Meyer, M. and Van Graan, J. Rudekrans mahalla kuzatuv misolida dastlab yaxshi natija bergan patrul guruhlarini bir necha yil o‘tgach tanazzulga uchraganini qayd etadi, ayrim guruhlar a‘zolar soni kamayib ketgani, moliyaviy yoki tashkiliy qo‘llab-quvvatlash yetishmagani sababli tarqab ketgan [14; 139-b.].

Masalan, Britaniyada 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshida milliy “Neighbourhood Watch” a‘zolari ulushi eng yuqori cho‘qqiga chiqqan (2000-yilda barcha xonadonlarning 25% a‘zo bo‘lgan) bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich pasayib, 2016–2017-yillarga kelib atigi 9% ni tashkil etgan [3]. Bu shundan dalolat beradiki, vaqt o‘tishi bilan dasturga nisbatan ommaviy qiziqish susayishi mumkin. Sabablari turlicha: kimdir vaqt yo‘qligidan, yana kimdir dasturdan kutgani bo‘lmaganidan ruhlanmay qo‘yadi yoki mahallada jinoyatchilik vaziyati o‘zgarib, dastur “keraksiz”dek tuyulishi mumkin. Barqarorlikni ta‘minlash uchun esa muntazam ravishda yangi a‘zolarini jalb qilib borish, mahalliy politsiya yoki hokimiyat tomonidan moddiy-ma‘naviy rag‘bat tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Aks holda, yaxshi boshlangan tashabbuslarning so‘nishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Tashkilotchilik va politsiya bilan hamkorlik masalalari. Harakatning o‘ziga xos yana bir talabi – fuqarolar guruhlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ularning huquqiy asosda ishlashi. Agar “Neighbourhood Watch” guruhlarini politsiya bilan yetarlicha hamkorlik qilmasa, ularning faoliyati samarasiz,

hatto zararli tus olishi mumkin. Ayrim vaziyatlarda mahalliy politsiya xodimlari fuqarolarga yetarlicha e‘tibor qaratmaydi, bu esa guruhlarining maqsadsiz qolishiga olib keladi. Demak, huquq-tartibot idoralari bilan uzviy aloqasiz, faqat aholi o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolsa, bunday tashabbus barqaror rivojlanmaydi. Mahalla kuzatuv guruhlarini rasmiy jamoatchilik politsiya tuzilmalari tarkibida shaffof integratsiya qilish lozim, shunda ularga zarur trening va resurslar berilib, faoliyati muvofiqlashtirib boriladi hamda hisobdorlik ta‘minlanadi. Aks holda, rasmiy tizimdan tashqari faoliyat yurituvchi guruhlar va politsiya o‘rtasida mas‘uliyat hamda vakolat chegaralari bo‘yicha noaniqliklar kelib chiqishi mumkin [14; 143-b.].

O‘zboshimchalik bilan jazolash va “qo‘shnichilik nazorati”ning xatarli oqibatlari. “Neighbourhood Watch”ning eng ko‘p tanqid qilinadigan jihatlari – bu harakat ba‘zan haddan tashqari shubha bilan qarash, stereotiplashtirish yoki hatto o‘zboshimcha jazolash holatlariga olib kelishi mumkinligi. Agar fuqarolar guruhlarini yetarli tay-yorgarlik va nazoratsiz faoliyat ko‘rsatsa, ular ba‘zida qonunni o‘z qo‘liga olishga moyillik bildirishi yoki begonalarni nohaq gumon ostiga olishi mumkin. Masalan, Niderlandiyada WhatsApp orqali mahalla kuzatuv guruhlarini o‘rgangan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bunday chat-guruhlar qo‘shnilar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvini va hamkorlikni yaxshilagan holda, ayrim holatlarda etnik profillashtirish, xavfli o‘zboshimcha patrulchilik va notanishlarga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishga xizmat qilib qolgan [17]. Bu, albatta, noxush oqibatlarga, ya‘ni befarqlik o‘rniga haddan tashqari shubha bilan qarash muhitini yaratib, mahallada yashovchilar o‘rtasida ishonchsizlikni kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Shu tufayli, bunday harakatlarni qo‘llab-quvvatlashda halqani tartibli yo‘lga solish, fuqarolarga maxsus treninglar berish va ularni huquqiy chegaralardan xabardor etish zarur. Aks holda, “Neighbourhood Watch” noto‘g‘ri yo‘naltirganida mahalla shubha, gumon muhitiga aylanib, ijtimoiy kelishmovchiliklarni kuchaytirib yuborishi mumkin.

Texnologiya va maxfiylik masalalari. Zamonaviy davrda “Neighbourhood Watch” guruhlar ko'pincha messengerlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki videokameralardan foydalanishadi. Bu, bir tomondan, imkoniyatlarni kengaytiradi: tezkor axborot almashish, kuzatuvni samarali tashkil etish va vaqtincha uzoqlashgan a'zolari ham jaryonga jalb qilishni osonlashtiradi. Lekin, shu bilan birga, texnologiyadan foydalanish maxfiylik va xavfsizlikning yangi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, qo'shnilar orasidagi onlayn guruhlarda tarqalgan ma'lumotlarning haqiqoniyligi va shaxsiy hayotga oid ehtimoliy aralashuv mavzusi. Kimnidir fotosuratini guruhda bo'lishish orqali uni “shubhali shaxs” sifatida muhokama qilish qonunan to'g'rimi? Bu kabi savollar aniq yechimni talab etadi. Shu sababdan ham, bunday dasturda qatnashuvchilar uchun maxsus qoidalar va yo'riqnomalar ishlab chiqish zarur, masalan: guruh a'zolari odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor etmasligi, faqat zarur holatda politsiyaga xabar berishi, hech qanday holda mustaqil tartib o'rnatishga urinmaslik kabi tamoyillarga rioya qilishi shart. Aks holda, texnologiya foyda o'rniga zarar keltirishi hech gap emas.

Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotlar “Neighbourhood Watch” to'g'ri tashkil etilganda va to'g'ri boshqarilganda jinoyatning oldini olish va jamoatchilik hamkorligini tashkil qilishda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynashini tasdiqlaydi. Asosiy masala – uni amalga oshirishning to'g'ri strategiyasi va uzviy hamkorlikdadir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan dasturni O'zbekistonda qo'llasa bo'ladimi, bunda nimalarga e'tibor qaratish zarur, degan savol tug'iladi. O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda “mahalla” instituti muhim o'rin tutadi. Mahalla fuqarolar yig'ini orqali mahalliy aholi muammolarini hal qilish, profilaktik ishlarni olib borish, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan faoliyat amalga oshiriladi. Mahallalarda profilaktika inspektorlari, fuqarolar yig'ini raislari, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar faoliyat olib boradi. Shu bilan birga, “jamoatchilik nazorati”

konsepsiyasi va fuqarolarning huquq-tartibot sohasidagi ishtirokini mustahkamlash borasida davlat siyosati faollashmoqda. “Mahallabay ishlash” tizimi, “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi bunga misol bo'ladi.

“Neighbourhood Watch” dasturi bilan O'zbekistondagi mahalla tizimi o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjud. Ikkalasi ham mahalliy darajadagi xavfsizlik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashga qaratilgan, fuqarolar ishtirokida amalga oshiriladi, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Biroq, farqli jihatlar ham mavjud. Jumladan, “Neighbourhood Watch” ko'ngillilar tashabbusi bo'lib, fuqarolar mustaqil ravishda uyushadi va politsiyaga yordam beradi, mahalla tizimi esa davlat tomonidan institutsional shaklda tashkil etilgan, funksiyalari aniq belgilangan, fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligi hali yetarli darajada rivojlanmagan, bunday hamkorlikka nisbatan salbiy qarashlar ham mavjud.

Fikrimizcha, jinoyatchilikning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik hamkorligini kengaytirish uchun mahalla tizimi va ichki ishlar organlari o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini aniq belgilash, fuqarolarni ko'ngilli faoliyatga jalb etish uchun targ'ibot, moddiy-ma'naviy rag'bat shakllarini kengaytirish, aniq topshiriq va vakolatlarni belgilab beradigan normativ hujjatlarni ishlab chiqish, ikki-uch hududni tanlab olib, bir yil davomida ushbu dasturni sinov tariqasida qo'llab ko'rish zarur.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi . <https://lex.uz/docs/6755597>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-22-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi . <https://lex.uz/docs/6755253>
3. <https://www.ourwatch.org.uk/our-research>
4. Bennett, T., Holloway, K., & Farrington, D. P. (2009). A Review of the Effectiveness of "Neighbourhood Watch". Security Journal, 22(2). – P.143–155. Advance online publication. <https://doi.org/10.1057/palgrave.sj.8350076>
5. Mukherjee S & Wilson P 1987. «Neighbourhood Watch»: issues and policy implications. Trends & issues in crime and criminal justice no. 8. Canberra: Australian Institute of Criminology. <https://www.aic.gov.au/publications/tandi/tandi8>
6. Chenery, S. «Neighborhood Watch». Oxford Research Encyclopedia of Criminology. Retrieved, 2025, from <https://oxfordre.com/criminology/view/10.1093/acrefore/9780190264079.001.0001/acrefore-9780190264079-e-13>.
7. Moores, C. Thatcher's troops? «Neighbourhood Watch» schemes and the search for 'ordinary' Thatcherism in 1980s Britain. Contemporary British History, 31(2), 230–255. <https://doi.org/10.1080/13619462.2017.1306203>
8. Pepper, M. and Bullock, K. «The community supporting the community ... that's where its strength is»: exploring the contemporary position of «Neighbourhood Watch» in the United Kingdom, Safer Communities, Vol. 24. – № 2. – P. 116–129. <https://doi.org/10.1108/SC-07-2024-0041>
9. Ball, K. «Peers and prejudice: «Neighbourhood Watch» in Europe», in Ball, K. and Webster, W. (Eds), Surveillance and Democracy in Europe, Routledge, London.
10. Bennett, T. «Factors related to participation in «Neighbourhood Watch» schemes», The British Journal of Criminology, Vol. 29 – № 3. – P. 207–218.
11. Brunton-Smith, I. and Bullock, K. "Patterns and drivers of co-production in «Neighbourhood Watch» in England and Wales: from neo-liberalism to new localism", The British Journal of Criminology, Vol. 59. – № 1. – P. 85–106.
12. Davies, A. and Jenkins, R. Civil Society Gains a New Resource: Reporting the Development of the Neighbourhood and Home Watch Network, Neighbourhood and Home Watch Network, London
13. Mak, H. and Fancourt, D. "Predictors of engaging in voluntary work during the COVID-19 pandemic: analyses of data from 31,890 adults in the UK", Perspectives in Public Health, Vol. 142. – № 5. – P. 287–296.
14. Meyer, M. and Van Graan, J. "Effective community policing in practice: the Roodekrans «Neighbourhood Watch» case study, West Rand", Acta Criminologica: African Journal of Criminology and Victimology, Vol. 24. – № 2. – P. 132-145.
15. <https://www.ourwatch.org.uk/news/neighbourhood-watch-agrees-ground-breaking-police-framework>
16. <https://www.crimesurvey.co.uk/en/index.html>
17. ojs.library.queensu.ca.